



TOSHKENT SHAHRIDA SANOAT, INFRATUZILMA VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 27-fevral kuni Toshkent shahrida sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari hamda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha hujjatlar loyihalari yuzasidan axborot berildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish, hududlarning turizm salohiyatini ro‘yobga chiqarish, aholining uy-joy sharoitlari va shaharlar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha qator maqsad va vazifalar belgilangan.

Bugungi yig‘ilishda bu boradagi ishlarni poytaxtda tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini amalga oshirishni soddalashtirish maqsadida Toshkent shahrida aksiyadorlik jamiyati shaklida “Toshkent invest kompaniyasi” tashkil etilgan. Kompaniya bo‘sh yer uchastkalari negizida investitsiya loyihalari va davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan, renovatsiya loyihalarini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

Shu munosabat bilan davlat-xususiy sheriklik shartlarida loyihalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibi, poytaxtda renovatsiya loyihalarini amalga oshirish tartibi, “hayotiy davr shartnomasi” asosida hamkorlik qilish tartibi tasdiqlanmoqda.

Taqdimotda Yangiyo‘l tumanining sanoat salohiyatini oshirish va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish maqsadida tashkil etilishi rejalashtirilgan “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi to‘g‘risida

axborot berildi. 664,5 gektar maydonni egallaydigan sanoat zonasi hududida yaqin yillarda 1,5 milliard dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini o‘zlashtirish, 2,5 mingta yangi ish o‘rinlarini yaratish, yiliga 1 trillion so‘mdan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va 5 million dollar miqdorida eksportni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Poytaxtda turizm xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Shu maqsadda Toshkentning Mirobod, Olmazor, Chilonzor, Uchtepa, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy va Yashnobod tumanlarida tegishli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish rejalashtirilgan. Dasturda gastronomik turizm va “hunarmandlar” ko‘chalarini tashkil etish, zamonaviy savdo-servis obyektlari va mehmonxonalar qurish, kanallar bo‘yida yashil va dam olish hududlarini barpo etish ko‘zda tutilgan.

Bu boradagi ishlarni mahalla darajasida tashkil etish, bunda mahallalarning o‘zish nuqtalarini aniqlab, muayyan faoliyat turiga ixtisoslashtirish va hududlarni ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha “Andijon tajribasi”dan keng foydalanish zarurlik qayd etildi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan hujjat loyihalari va takliflarni ma‘qullab, ularning ijrosini sifatli va samarali tashkil etish yuzasidan mutasaddilarga qator topshiriqlar berdi.

O‘ZA

Biz va dunyo

Samarqandga yo‘l:

2025-YILDA UNESCO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIVASI O‘TKAZILADIGAN MANZIL

BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida O‘zbekistonning doimiy vakolatxonasi tomonidan “Samarqandga yo‘l: 2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o‘tkaziladigan manzil” mavzusida brifing o‘tkazildi.

Tadbirda BMTning yuqori martabali vakillari, jumladan, Bosh kotib apparati rahbari Erl Korteney Rattray, bosh kotibning Bosh assambleya va konferensiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Movses Abelian, bosh kotibning Yevropa, Amerika va Markaziy Osiyo bo‘yicha yordamchisi Miroslav Yench, shuningdek, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Misr, Ozarbayjon, Armaniston, Germaniya, Fransiya, Lyuksemburg, Shveysariya, Koreya Respublikasi, Qatar, Marokash, Malayziya, Bahrayn, Ruminiya, Singapur kabi davlatlarning doimiy vakillari hamda diaspora tashkilotlari rahbarlari ishtirok etdi. Samarqand viloyati hokimi o‘rinbosari Oybek Hamroyev

boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi ham qatnashdi.

Ishirokchilarga bo‘ljak UNESCO Bosh konferensiyasini yuqori tashkiliy va mazmunan boy tarzda o‘tkazish uchun Samarqand shahrida yaratilgan shart-sharoitlar haqida atroflicha ma‘lumot berildi. Tadbirkorlik va madaniy, tibbiy va gastronomik turizm obyektlarini o‘zida mujassam etgan yangi yirik “Ipak yo‘li” majmuasining imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratildi. Ishirokchilar, shuningdek, Samarqandning iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati bilan ham yaqindan tanishdi.

Davomi 2-betda



O‘ZBEKISTON TASHABBUSINING XALQARO E‘TIROFI

26-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O‘zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi bir ovozdan ma’qullandi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan ushbu rezolyutsiyaga 80 dan ortiq a‘zo mamlakat hammualliflik qildi.

Hujjat matnini muvofiqlashtirish bo‘yicha maslahatlashuvlarda Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Misr, Braziliya, Argentina kabi yetakchi davlatlarning ekspertlari faol ishtirok etdi va rezolyutsiya mazmunini boyitishga muhim hissa qo‘shdi. BMTga a‘zo davlatlar vakillari ushbu rezolyutsiyaning taqdim etilishi o‘z vaqtida va dolzarb ekanini qayd etdilar.

Hujjatning bosh maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil oktabrida Samarqandda bo‘lib o‘tgan BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida turizm sohasining yangi muammolar va zamonaviy xatarlar oldida barqarorligi va moslashuvchanligi borasida bildirilgan fikrlariga asoslangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan turizmning turli sivilizatsiyalar boy madaniy merosini asrashda, tinchlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashda, xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishda muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida bayon etilgan tamoyillar ushbu rezolyutsiyada mustahkamlangan.

Albatta, O‘zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan mazkur rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilingani ham bejiz emas. Boisi, keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanmoqda, bu borada yirik loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Birgina Samarqand shahrining o‘zida turistik infratuzilmani yaxshilash uchun 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ investitsiya sifatida kiritildi. Qadimiy va hamisha navqiron bu shaharda “Ipak Yo‘li” sayyohlik markazi qad rostladi. Sayyohlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi.

“Amirsoy” qishki kurorti, “Afsonalar vodiysi”, “Zomin” va “Chorvoq” zonalarini ko‘plab xorijiy sayyohlar e‘tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi.

Bu kabi ta‘sirchan chora-tadbirlar jahon hamjamiyati tomonidan alohida e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. O‘zbekiston Jahon



sayyohlik tashkilotining “eng tez rivojlana-yotgan turizm maskanlari” ro‘yxatida, shuningdek, mashhur “Gellop” ijtimoiy taq-qiqot markazining “Sayyohlik uchun eng xavfsiz davlat” reytingida yuqori o‘rinlarni egallagani ham fikrimiz dalilidir.

Jumladan, 2023-yili Samarqandda UNWTO Bosh Assambleyasi sessiyasi o‘tkazilgani ham tarixiy voqea sifatida tan olindi.

Mazkur sessiyada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surgani ham jahon hamjamiyatining e‘tirofiga sazovor bo‘ldi. **Turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishlari to-bora kuchayib borayotgan davrda “yashil” turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish, “Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar” nominatsiyasini ta‘sis etish** kabi qator taklif va tashabbuslar shular jumlasidan-dir.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining ushbu sessiyadagi nutqidan iqtibos keltiramiz: **“Turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta‘minlashning muhim omilidir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni paytda, u jahon xalqlari o‘rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vositadir”.**

Afsuski, keyingi yillarda o‘zgarib borayotgan dunyo manzarasi — davlatlararo kuzatila-yotgan nizolar, beqaror vaziyatlar, tahlikali siyosiy munosabatlar turizm sohasini ham inqirozga boshlamoqda. Davlatimiz rahbari Sa-

marqand minbarida turib ta‘kidlaganidek, **ming afsuski, bu jarayonlar oqibatida jozibador va an‘anaviy yo‘nalishlarda turizm salohiyati va sayyohlar soni keskin pasayimoqda, xavfsiz turizm uchun doimiy tusga ega bo‘lgan xatar va tahdidlar ortimoqda, ularning salbiy ta‘siri qo‘shni mintaqalarga ham tobora kengroq tarqalmoqda, butunjahon madaniy meros obyektlari va ko‘hna arxitektura yodgorliklari vayron qilinmoqda va hatto ayrimlari Yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketmoqda. Bunday ayanchli holatlarning oldini olish uchun barchamiz hamjihat va yakdli bo‘lib, bor kuch va sa‘y-harakatlarimizni birlashtirishimiz kerak.**

Darhaqiqat, bugungi davr ruhi o‘zaro hamjihatlikda rivojlanish, bag‘rikenglik va birdamlik muhitiga katta ehtiyoj borligini anglatib turibdi. Shu bois, 2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili, deb e‘lon qilinishi notinch va tahlikali vaziyatlarni yumshatish, davlatlar va mintaqalararo iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, kambag‘allik bilan kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni 2022-yili dunyo miqyosida salkam bir milliard turist xorijga sayohat qilgani, bu pandemiya qadar bo‘lgan ko‘rsatkichning salkam 70 foizini tashkil etgani va raqamlar yil sayin o‘sib borayotgani ham tasdiqlab turibdi.

Bu o‘rinda ikki muhim jihat alohida e‘tiborlidir: **birinchisi — barqarorlik, ikkinchisi — yashovchanlik.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT doirasida ham, boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar minbarlarida ham butun dunyoda

tinchlikni saqlash, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanish tashabbuslarini ilgari surib keldi. Bu jihatlar BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyusiyasida o‘z aksini topgani zamirida katta ma‘no bor. Bu, avvalo, **turizmni rivojlantirish orqali dunyoda barqaror taraqqiyotga erishish mumkinligini anglatadi**, uni to‘ldiruvchi sifatida **yashovchanlik muhitini asrab qolishga bo‘lgan ehtiyoj va itilish maqsadlarini o‘zaro mujassamlashtiradi**. Bir gap bilan aytganda, **barqarorlik bor joyda yashovchanlik muhiti bo‘ladi**.

Endi hujjatdagi bir qator boshqa maqsadlarga to‘xtalamiz. Jumladan, mazkur rezolyutsiyada ekologiya, bioxilma-xillikni asrash va atmosferaning ifloslanishini kamaytirish yo‘lida “yashil” turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Rezolyutsiya 2027-yilni Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb e‘lon qilishni qaror qiladi hamda BMTning Jahon sayyohlik tashkilotini hukumatlar, BMT tizimidagi tuzilmalar, mintaqaviy tashkilotlar bilan birgalikda yilni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun kompleks choralar ko‘rishga chaqiradi.

Rezolyutsiyada barqaror turizmni, jumladan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlikni ta‘minlash, qishloq hududlarini rivojlantirish va qishloq aholisining yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi ekturizmni rivojlantirish muhimligi ta‘kidlanadi.

Rezolyutsiya barcha manfaatdor tomonlarga barqaror va yashovchan turizmni kambag‘allikni bartaraf etish, ayollar, yoshlar, keksalar va nogironlarning ishtirokini rag‘batlantirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda munosib ish joylari va daromad manbalarini yaratishning muhim vositasi sifatida faol ilgari surishni tavsiya etadi.

Hujjat bilan BMTning Jahon sayyohlik tashkilotiga ushbu rezolyutsiyaning amalga oshirilishi yuzasidan BMT Bosh Assambleyasining 83-sessiyasida (2028-y.) axborot berish, bunda Xalqaro yil qay darajada o‘tkazilganini baholashga alohida e‘tibor berish topshirildi.

Ekspertlarning fikricha, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan rezolyutsiya turizm sanoatining global darajada yangi bosqichga ko‘tarilishini boshlab beradi.

Uyg‘oq fikr

Vatan nima? VATANPARVARLIK-CHI?!

Insoniyatning ongli hayoti davomida qariyb 14,5 mingta katta-kichik urush bo‘lgan. Bu urushlar tufayli millionlab odam, tinch aholi qurbon berildi. Mamlakatlar iqtisodiyoti izdan chiqdi. Uzoq yillar davomida shakllangan milliy madaniy meros yo‘q qilindi. Taraqqiyot ortga surib tashlandi.

Bu xunrezliklar hech qachon to‘xtamadi. Paradoks holat: insoniyat tafakkur tarzi boyib borgan sari urushlar, vayronagarchiliklar to‘xtasho‘miga yangi sifatlar bilan “boyimoqda”. Qurol-yarog‘larning eng zamonaviy turlarini ishlab chiqish, odamlarni omamviy qirishga yo‘naltirilgan, avvallari hatto tasavvur ham qilib bo‘lmagan “aqlli” raketalar, o‘q-dorilar ishlab chiqarish “musobaqasi” kuchaymoqda.

Barchani tashvishga soladigan jihat shuki, ilm-fan taraqqiy etgani, kishilarda ziyolilik sifati oshgani, ma‘rifatli dunyoni



barpo etishning insoniyat uchun zarurlik darajasi ko‘paygani sari urush olovi tobora kengayib bormoqda. Aslida, aksi bo‘lishi mumkin emasmi? Nahotki, qanchadan-qancha urushlar natijasida yuz bergan yo‘qotishlar, vayronagarchiliklardan chiqqan xulosalarimiz, ularning oqibati haqidagi kino, teatr asarlari,

yozilgan kitoblar, qilingan pand-nasihatlardan insoniyat xulosa chiqara olmasa!..

Biz bugun mana shu tahlikali dunyoda bunday urushlar, yo‘qotishlarning asl sababini topish, undan zarur xulosalar qilish mamlakatimiz va millatimizning kelajagi bilan bog‘liq ekanini anglashimiz zarur bo‘lmoqda.



Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining o‘tgan yil oxirida o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari biz bugun dunyoda yuz berayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy sohadagi raqobatga tayyormizmi, degan savolni qo‘yib, u biz uchun bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni belgilab beradigan, kelajakdagi taqdirimiz bilan uyg‘un masala ekaniga yana bir bor e‘tiborimizni qaratdi.

Davomi 3-betda

Ochig'ri, bundan atigi 3-4 yil avval ham Jarqo'rg'on tumanidagi Qora yantoq mahallasida zamonaviy shaharcha bunyod etiladi, desa hech kim ishonmasdi. To'g'rida, faqat qum barxanlaridan iborat, odam yursa oyog'ri, qush uchsa qanoti kuyadigan hududda oddiy giyoh undirishning o'zi mushkul edi. Uzoqni ko'zlab, puxta o'ylangan loyiha asosida bugun bu yerda zamonaviy shaharcha infratuzilmasi yaratilmoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Munosabat

ISHONCHNI OQLASH FURSATI

BUNING UCHUN IMKONIYATLARDAN TO'G'RI VA SAMARALI FOYDALANISH KERAK

Prezidentimizning joriy yil 21-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida jami 100 ta maqsad, 400 dan ortiq keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi. E’tiborlisi, belgilangan amaliy tadbirlar jamiyatimiz rivoji, davlatimizning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda, har birimizning farovonligimizni kechagiga nisbatan yaxshilashga qaratilgani bilan o‘ta muhimdir.

Shu o‘rinda joriy yilgi davlat dasturining ba’zi bir o‘ziga xos jihatlari to‘xtalmoqchiman. Bizga eng ma’qul bo‘lgan jihati, hujjatda yoshlar masalasiga kompleks yondoshilgani bo‘ldi.

Ma'lumki, mahallalarda yoshlar yetakchisi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ular eng quyi tizimda yoshlar muammolarini o‘rganib, hal qilish ishlariga mas’ul. Tan olish kerak, yoshlar yetakchilarining bugun biz aytayotgan “mahalla yetiligi” tizimidagi o‘zaro integratsiyasi sezilmayotgan edi. Bu — ularning o‘zaro hamkorligi masalasi bilan bog‘liq. Dasturda esa ayni masala o‘z yechimini topgan. Ya’ni 74-maqsadda mahalla faoliyatini raqamlashtirish, bunda mahallaning yagona platformasini joriy qilish orqali nafaqat “yetilik”, balki ularning faoliyatiga aloqador tizimlar bazalari bilan mazkur platformani integratsiya qilish vazifasi belgilangan.

Ahamiyatlisi, davlat dasturida muammo va uning yechimi, yangi tashabbuslar, loyihalar, ularni amalga oshirishning aniq mexanizmi va moliyalashtirish masalalari hal qilingan.

To‘g‘risini aytish kerak, bolalarni maktabga maxsus avtobuslar olib ketganini ko‘pchiligimiz xorij kinolarida ko‘rganmiz. Haqiqatan, bu ko‘pgina rivojlangan davlatlarda yo‘lga qo‘yilgan. Bunga havas qilganimiz ham rost.

Davlat dasturi bilan tanishib chiqib, eng quvonganim maktab o‘quvchilari uchun ana shunday imkoniyat yaratilayotgani bo‘ldi. Joriy yil 1-sentabrda boshlab Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida umumiy o‘rta ta’lim maktablariga olis hududlardan qatnaydigan o‘quvchilar uchun autorsoring asosida bepul avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Bu birinchidan, ta’lim sifati, qolaversa,

To‘g‘risini aytish kerak, bolalarni maktabga maxsus avtobuslar olib ketganini ko‘pchiligimiz xorij kinolarida ko‘rganmiz. Haqiqatan, bu ko‘pgina rivojlangan davlatlarda yo‘lga qo‘yilgan. Bunga havas qilganimiz ham rost.

bolalarning xavfsizlik masalasida juda muhim ahamiyatga ega.

Shu yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste’dodli va qobiliyatli yoshlar “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat ishtirokidagi korxona-tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari rahbarlariga biriktiriladi. Bunda o‘sha rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o‘ziga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko‘maklashadi.

Yana bir muhim jihat, yoshlarning salohiyati, iste’dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida 1-martdan boshlab mahalla, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg‘armasi 600 million so‘m miqdorida xorijiy tillar bo‘yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual o‘yinlari tashkil etiladi. Kasblar

tanloviga g‘olib bo‘lgan yoshlar “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan jihozlangan ustaxonalar bilan ta’minlanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, yurtimizda yangi bitta kichik va o‘rta biznes subyekting faoliyat boshlashi YIMga qo‘shimcha 100 ming dollar miqdorida ulush olib kiradi. Dasturda kompleks qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirish jarayonida 2 million insonni biznesga jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta’minlash vazifasi belgilangan shu jihatdan ham g‘oyat muhimdir.

Bugun yurtimizda ish bilan band aholining 70-75 foizi kichik va o‘rta biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shunday ekan, bunday korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yangi ish o‘rinlari yaratilishi iqtisodiy o‘sishga, budget taqchilligi oshib ketmasligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu maqsadda oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyat yaratish maqsadida 2024-yil 1-iyundan boshlab “Yosh tadbirkor” tanlovi o‘tkaziladi.

Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Ustoz” maxsus platformasi ishga tushirilib, dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 150 ming yig‘it-qiz qamrab olinadi. Shuningdek, “Qizlar akademiyasi” platformasi yaratilib, yosh xotin-qizlar tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o‘rgatiladi va ular uchun turli tanlovlar o‘tkaziladi. 1-martdan boshlab “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturi joriy etiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat dasturida yoshlarning hayotiga yangilik va yengillik olib kiradigan bunday tashabbuslar ko‘p. Bu yil, tom ma’noda, biz yoshlarning yili — rag‘bat va ishonchni oqlash fursati bo‘ladi. Shunday ekan, har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan to‘g‘ri va samarali foydalanishimiz kerak.

Sitora IBROHIMOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Bunyodkorlik

SURXONDARYODA TO‘RTTA SHAHAR QURILMOQDA

Surxondaryo viloyatining g‘arbida joylashgan Boysundan 130 chaqirim yoki voha shimoli Denovdan 150 kilometr yo‘l bosib, Termiz shahriga kelgan kishi borki, olisdan ham ko‘rinib turgan 16 qavatli viloyat hokimligi binosini osongina topa olardi. Negaki, nafaqat shaharda, balki viloyatda bittagina besh qavatdan yuqori bino aynan shu edi.

Boysunlik Dilnoza Odilova bundan o‘n yillar oldin ilk bor viloyat markaziga kelganida bu binoga hayratlanib qaragani ham bor gap. U paytlar Surxondaryoda to‘rt qavatli binodan balandroq bino qurib bo‘lmaydi, davlatning imkoniyati ham yetmaydi, degan “tushunasiz” tushuncha bor edi. Oradan yillar o‘tib, tog‘li Boysunning o‘zida “Yangi O‘zbekiston” massivida bunyod etilgan 8-9 qavatli xonadonlardan birining kalitini qabul qilib olayotganda Dilnoza Odilovaning quvonchi cheksiz bo‘ldi. Yolg‘izgina nogiron farzandini bir o‘zi voyaga yetkazib kelayotgan Dilnoza shu kunga qadar o‘z uyiga ham ega emasdi.

— Qizimning uzoq yillik orzusi ushaldi. Eng chekka joylarda ham inson qadrini ulug‘lash degani, shu bo‘lsa kerak. Qizim bu

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, yurtimiz bo‘ylab tuman hamda shaharlar markaziga yaqin va uy-joyga talab yuqori bo‘lgan hududlarda jami 29 ta “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilishi belgilandi. Mazkur massivlarda 619 ta uy-joy qurilishi hisobiga 21 ming 312 xonadon joylashishi, shu bilan birga, 18 ta maktab, 24 ta bog‘cha va 15 ta tibbiyot muassasasi barpo etilishi ko‘zda tutilgan.

Farmon asosida Surxondaryo viloyatining to‘rtta hududi — Angor, Jarqo‘rg‘on, Sari-osiyo va Boysun tumanlarida “Yangi O‘zbekiston” massivlari bunyod etilmoqda.



o‘yingohlari, oilaviy poliklinikalar kabi ijtimoiy soha obyektlari ham barpo etilyapti.

Ochig‘ri, bundan atigi 3-4 yil avval ham Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qora yantoq mahallasida zamonaviy shaharcha bunyod etiladi, desa hech kim ishonmasdi. To‘g‘rida, faqat qum barxanlaridan iborat, odam yursa oyog‘ri, qush uchsa qanoti kuyadigan hududda oddiy giyoh undirishning o‘zi mushkul edi. Uzoqni ko‘zlab, puxta o‘ylangan loyiha asosida bugun bu yerda zamonaviy shaharcha infratuzilmasi yaratilmoqda.

— Sayxon deb nomlangan kichik cho‘l, undan nari esa Bobotog‘ ko‘rinib turadi. Biz bolaligimizda bu kengliklarda otar boqardik. Biydek yalanglik edi. Bir qo‘y adashsa, yulg‘unzordan topib bo‘lmasdi. Mana shu joyda ikki-uch yil ichida chiroyli shahar bunyod bo‘lyaptiki, ko‘zingiz quvnaydi, — deydi mehnat faxriysi Soat Jumayev.

Ma’lumot uchun, 2026-yilga qadar ushbu massivda 86 ta ko‘p qavatli uylar, xizmat ko‘rsatish obyektlari va ijtimoiy infratuzilma qurilishi belgilangan. Shu kunga qadar massivda 14 ta 5 qavatli 352 xonadonli turar joy, 180 o‘rinli MTT, 50 o‘rinli qishloq oilaviy poliklinikasi va 330 o‘quv o‘rinli maktab binolari foydalanishga topshirildi.

Ayni paytda viloyatning Angor va Sariosiyo tumanlarida ham shunday massivlar qurilishi boshlab yuborilgan. “Yangi O‘zbekiston” massivlarining qurilish ishlarida hudud iqlimi, geografik joylashuvi ham hisobga olinaypti.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



islohotlardan minnatdor. Ikkinchi tomondan, tog‘lar orasida joylashgan Boysundan osmonga bo‘ylagan ko‘pqavatli uylar qurilishini tasavvur qilolmaganimiz. Hozir ko‘z o‘ngimizda shunday imoratlar qad rostlayaptiki, bundan ko‘z quvnaydi, — deydi Dilnozaning otasi Karomat bobo Odilov.

Mazkur massivlarda jami 1600 xonadonli ko‘p qavatli uylar qurilyapti. Yangi uylarga ko‘chib keladigan aholi sonini hisobga olgan holda viloyatda bunyod etilayotgan har bir massivda maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, choyxona, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, sport maydonchalari va bolalar

Biz va dunyo

Samarqandga yo‘l:

2025-YILDA UNESCO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIYASI O‘TKAZILADIGAN MANZIL

Boshlanishi 1-betda

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda qadimiy va betakror Samarqand bir qator dolzarb masalalar yuzasidan global muloqot markaziga aylandi. So‘nggi olti oy ichida shaharda BMT mandati ostida uchta forum bo‘lib o‘tdi. Butunjahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi, BMTning Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasini

ko‘rib chiqish qo‘mitasining 21-yig‘ilishi va BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi (CMS COP14) Tomonlar konferensiyasining 14-yig‘ilishi shular jumlasidandir.

Samarqand 1985-yildan buyon UNESCO Bosh konferensiyasi uning bosh qarorgohidan tashqarida o‘tkaziladigan ilk mezbон shaharga aylanishi ta’kidlandi. Tashkilotning asosiy qadriyatlarini yanada targ‘ib etishga ulkan

hissa qo‘shishga qaratilgan ushbu nufuzli xalqaro forumni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun barcha sa’y-harakatlarni safarbar etish bo‘yicha O‘zbekiston hukumatining qat’iy intilishi alohida urg‘ulandi.

Brifing ishtirokchilari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini muvaffaqiyatli o‘tkazish bora-sidagi sa’y-harakatlarni yuqori baholadi. Samarqandda xalqaro forumlarni yuqori

saviyada tashkil etish uchun yaratilgan infratuzilma va boshqa imkoniyatlar haqida ijobiy fikrlar aytiladi. Samarqand sessiyasi UNESCO tarixidagi noyob voqea bo‘lib, sivilizatsiyalar va madaniyatlar o‘rtasidagi rang-baranglik hamda muloqot ramziga aylanishiga ishonch bildirildi.

Ko‘plab oliy martabali ishtirokchilar UNESCOning Samarqandda bo‘lib o‘tadigan sessiyasi haqida o‘zlarining ijobiy va xolis baholarini e’tirof etdi.



Miroslav YENCHA,
BMT bosh kotibining Yevropa,
Amerika va Markaziy Osiyo bo‘yicha yordamchisi:

— Avvalo, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Samarqandda o‘tkazilishi bo‘yicha ushbu muhim tashabbusni ilgari surgan O‘zbekiston Prezidentini tabriklayman. Bu BMT tizimidagi asosiy tuzilma hisoblangan UNESCO faoliyatidagi muhim qadamdir. Tashkilotning navbatdagi Bosh konferensiyasi go‘zal Samarqand shahrida bo‘lib o‘tishi bizga katta quvonch bag‘ishlaydi.

O‘tgan yili O‘zbekistonga tashrifim chog‘ida Samarqandni ziyorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldim va tez o‘zgarib, yanada obod bo‘lib borayotgan shaharning zamonaviy yiqovasidan juda quvondim. Xalqaro konferensiyalarni tashkil etish uchun mukammal sharoitlar yaratilgan. Ishonchim komilki, UNESCO Bosh konferensiyasi bo‘ljak sessiyasining barcha ishtirokchilari tadbirning tashkil etilishidan mamnun bo‘ladi.

Yevangelos SEKERIS,
Gretsiyaning BMTdagi doimiy vakili:



— UNESCO Bosh konferensiyasining bo‘ljak sessiyasi 2025-yilda Samarqandda o‘tkazilishi munosabati bilan Gretsiya

ning BMTdagi doimiy vakolatxonasi nomidan O‘zbekistonning doimiy vakolatxonasini va Samarqand shahri rahbariyatini tabriklayman.

O‘ylaymanki, bu qadimiy shaharning ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston nafaqat BMT doirasida Yevropa Ittifoqi bilan, balki mening yurtim Gretsiya bilan ham ikki tomonlama asosda davom etayotgan munosabatlar darajasini ko‘rsatish uchun noyob imkoniyatdir.

Quvonarlisi, yaqinda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Toshkentda elchixona ochish niyatimizni bildirdik, bu bizni juda quvontiradi.

Shuningdek, biz O‘zbekiston bilan BMT platformasida yaqin hamkorlik qilamiz va 2025-yilda Samarqanddagi UNESCO tadbiri muhim voqea bo‘lishiga ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, O‘zbekiston rahbariyati va xalqiga mamlakat uchun juda muhim voqea bo‘lishi kutilayotgan mazkur tadbir munosabati bilan samimiy tabriklarimni yo‘llayman.



Abdullaziz Al-VASIL,
Saudiya Arabistonining BMTdagi doimiy vakili:

— 2025-yilda UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi bo‘lib o‘tadigan Samarqand shahrining bugungi taqdimotida qatnashganimdan juda xursandman. Samarqand jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan noyob madaniy-tarixiy merosi bilan dunyoning barcha mintaqalarida juda mashhur.

Men O‘zbekiston Samarqand anjumanini yuqori saviyada o‘tkazishiga ishonaman. Saudiya Arabistoni hukumati O‘zbekistonning UNESCO va umuman, BMTdagi sa’y-harakatlarini qat’iy qo‘llab-quvvatlaydi.



Mark SEAX,
Singapurning BMTdagi doimiy vakili o‘rinbosari:

— O‘zbekistonni UNESCOning navbatdagi Bosh konferensiyasini ajoyib shahar — Samarqandda o‘tkazish imkoniyati yaratilgani bilan chin qalbimdan tabriklayman. Ishonchim komilki, ushbu tadbir muvaffaqiyatli o‘tkaziladi. Shuningdek, xalqaro hamjamiyat uchun UNESCO kun tartibidagi dolzarb masalalarni har tomonlama ko‘rib chiqish uchun noyob platforma bo‘lib xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Nyu-York

Usama ABDULXOLIQ,
Misrning BMTdagi doimiy vakili:

— O‘zbekistonning doimiy vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan bugungi tadbirda ishtirok etish va Samarqand viloyati rahbariyati bilan uchrashish men uchun sharaftir.

Samarqandni UNESCO Bosh konferensiyasiga tayyorlashni qo‘llab-quvvatlash juda muhim, deb hisoblayman. Ma’lumki, Misr ushbu tashkilotning juda faol a’zosi va asoschilaridan biridir.

O‘zbekiston va Misr turli sohalarida va xalqaro tashkilotlar doirasida juda yaqin hamkorlik qiladi. Biz O‘zbekistonning bunday muhim tadbirga mezbонlik qilish niyatini qo‘llab-quvvatlashdan mamnunmiz. Ta’kidlash



kerakki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ko‘plab yuqori darajadagi tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda, bu mamlakatimiz tinchlik va barqarorlikni ta’minlash sohasida, jumladan, BMT doirasida yaqin hamkorlikka intilishini tasdiqlaydi.

Biz Misrda O‘zbekiston bilan hamkorlikni yuksak qadrlaymiz. Mamlakatimiz min-taqada barqarorlik namunasini o‘zida omlidirdi. Misr ko‘p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirish tarafdori.

Bu yerda, BMTda ham biz o‘zbekistonlik hamkasblarimiz bilan juda yaqin hamkorlik qilayotganimizni, bir-birimizning tashabbus va qarorlarimizni qo‘llab-quvvatlayotganimizni

alohida ta’kidlamoqchiman.

Fursatdan foydalanib, barcha qardosh va do‘st O‘zbekiston xalqiga ezuq tilaklarimni bildiraman.

Uyg‘oq fikr

Vatan nima? VATANPARVARLIK-CHI?!



Abduxalil MAVRULOV, tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Haqiqatan, bugungi dunyo toбора tahlikali tus olmoqda. Kim do‘st, kim dushmanligini aniqlash toбора qiyinlashib boryapti. O‘zini yaqin tutib, bir qo‘l bilan “mehribonlik” qilishga va‘da berib, boshqa qo‘l bilan turli vositalar ila asl maqsad-muddaolarni yashirgan holda zimdand ish ko‘rayotgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosatdonlarni anglash qiyin bo‘lmoqda. Bunga ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlarda ba‘zan yaltiroq qog‘ozga o‘rab, ba‘zan ochiqchasiga o‘z niyatlarini bayon etayotganlarning chiqishi misolida guvoh bo‘lyapmiz.

Ayni paytda hammamizning oldimizda Vatan taqdiri barcha masalalarning masalasi sifatida bo‘y ko‘rsatayotganini ta‘kidlamaslik mumkin emas. Davlatimiz rahbari mazkur yig‘ilishda mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘yg‘an bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayot qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirish lozimligini bejiz alohida qayd etmadi.

Vatanni sevish hissi biz uchun eng tabarruk tuyg‘udir. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ming yillar davomida yashab kelgan ushbu makon, ro‘yi zamin har doim go‘zal tabiati, moddiy-ma‘naviy boyliklari, mehnatkash xalqi bilan butun dunyoni o‘ziga rom etib kelgan. Shuning uchun bu zaminga egalik qilish barcha yaqin va uzoq “qo‘shnilarimiz”ning orzusi bo‘lgan. Buning oqibatida biz milliy davlatchilik tariximizning qariyb uchdan bir qismini mustamlakachilikda o‘tkazishga majbur bo‘ldik.

Endi bsa. Bu ko‘hna tariximizda hassamizni ko‘p bora yo‘qotdik. Buning natijasida ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-allomalarimiz yaratgan tamaddunlarni, milliy madaniy merosni ko‘ldan boy berdik. Bugun ko‘hna tariximizni chuqur, teran, xolis o‘rganish payti keldi. Hozir uning shoni, muvaffaqiyatlar bilan bezangan, ayni paytda uzoq vaqtlar boy berilgan moddiy-ma‘naviy boyliklarimiz, amalga oshmay qolgan kashfiyotlarimiz, qo‘ldan chiqqan imkoniyatlarimiz haqida ochiq gapiradigan, ularning o‘rnini to‘ldiradigan davr.

Chunki oldimizda Vatan taqdiri turibdi. Ba‘zilar “Bugun bizga kim ham hujum qilardi, tahdid qani?” deyishi mumkin. Bu savolni berganlarni aslida yo uzoq tariximizni bilmaydiganlar, yo bilib turib undan xulosa chiqara olmaydiganlar yoxud Vatan taqdiriga befarq kishilar, deyish mumkin.

Vatanparvarlik — buyuk tuyg‘u. Vatan jonsiz, ruhshiz buyum emas. Biz bor ekanmiz, har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda vatanparvarlik degan vijdon suvi oqadi. Vatanni unutgan har bir inson o‘rmonda yoki sahro-cho‘llarda adashgan, shamchirog‘ini yo‘qotgan kishi kabi bir umr mehrga, muhabbatga, zor, o‘zi mansub xalqqa muhto‘ bo‘lib yashaydi. U jismoniy jihatdan tirik, ammo ma‘novo‘n o‘lik — bir umr afsun-nadomat chekadi.

Biz “Vatanni sevish kerak”, degan iborani ko‘p ishlatamiz. Bu yaxshi gap. Ammo “bu yaxshi gap” hamma narsani ham anglatmaydi. Vatanni sevish faqat so‘zda bo‘lganda edi... Vatanni sevish tuyg‘usi bu ibora e‘tiqodga aylanishi bilan bezalonli kerak. Vatanni sevaman, deb unga xiyonat qilayotganlar kammi? O‘z xizmat lavozimida belgilangan vazifalarni sidqidildan bajarmaslik ham, taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan xato, kamchiliklarni ko‘ra turib, ko‘z yumish ham, millat va mamlakat qiyin ahvolda qolganda fuqarolik mas‘uliyatini atayin unutgan hamda davlat va jamiyat qabul qilgan turli me‘yoriy hujjatlarining qabul qilinishida faol ishtirok etib, biroq uning ijrosida “chetga chiqib turish” ham aslida Vatanga xiyonat emasmi?

“Qayerda yashash qulay bo‘lsa, o‘sha joy men uchun Vatan!” tushunchasini hayotiy tamoyilga aylantirib olganlar-chi? Bu misollarning barchasi bizni o‘ylantirishi, do‘ppini yonga qo‘yib, xulosa chiqarishga undashi kerak.

Xulosa chiqarish uchun ham uzoqqa borishning keragi yo‘q. Ko‘hna tariximizga murojaat qilishning o‘zi yetarli. Masalan, milliy tariximiz, qadriyatlarimizda har doim tuproq va madaniyat alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, tuproqning joni bor, u his qiladi. Unda ajdodlarimiz xoki, quvonch-u armoni, qo‘shiqlari, aytiorlari va fig‘on-u nolasi, onalarning allasi, oshiq-ma‘shuqlarning dil rozlari mujaasam.

Uzoqqa ketayotgan, qaytib kelishi noma‘lum kishilar Vatan tuprog‘idan bejiz olib ketmagan. Shu bir kaft tuproqda Vatan hidi, tafti, mehri mujaasam bo‘lgan uchun, agar kishi begona yurtida umri poyoniga yetsa, o‘sha tuproqni tanasiga qo‘shib dafn etishlari uchun shunday qilingan.

A.Berdimurodovning “Vatan haqqiga munojo‘t” asarida qayd etilishicha, 1231-yili so‘nggi xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi baland tog‘ ustidagi kulbada mudrab o‘tirganida orqasidan nomard kurd ilondek sudralib kelib, sultonni shahid qiladi. Shohona libosdagi bu kishining katta boyligi bor, degan ilinida shahidni tintib ko‘radi. Qo‘ynidan charm xaltacha topib olgach, kurdning qonga to‘lgan ko‘zlari quvonchdan porlaydi. Xoin darhol xaltachani ochib ko‘radi-yu, hafsalasi pir bo‘ladi. Xaltachada bir siqim tuproqdan boshqa hech vaqo yo‘q edi. Ha, bu Vatanning tuprog‘i, jasur Jaloliddin yurtining bir qismi edi. Sulton Jaloliddin bu xaltachani hamisha yuragi ustida asrab yurardi. Oqibatda Sulton Jaloliddin shu tuproq, shu Vatan uchun jon fido qildi.

Dushmanlar bilan bo‘lgan janglarda ham, ahvol tang holatga kelganda ham ushbu ikki qadriyat uchun, kerak bo‘lsa, jon berilgan. Xun hukmdori Metening “Tuproq millatning ildizidir, uni qanday berayin?!” degani ham vatanparvarlik tuyg‘usining ajdodlarimizda qadimdan shakllanib, ardolanganidan dalolat beradi.

Xalqimiz azaldan Vatan va madaniyat, milliy qadriyatlarimizni egizak holda ko‘rgan, tasavvur qilgan. Vatan xalqimiz moddiy mavjudligining ifodasi bo‘lsa, madaniyat, qadriyatlarimiz shu Vatanning ma‘naviy ramzi, timsolidir. Ming yillar davomida shakllangan, sunorli alg‘ov-dalg‘ov davrlarda ham milliy xususiyatlarini yo‘qotmasdan, zamonlar osha sayqallanib, milliy jilolarini yangi sifatlar bilan boyitib kelayotgan bunday madaniyatimizning bardavomligi Vatanni sevish tuyg‘usi bilan hamohangligidadir.

Shuning uchun madaniyat va san‘atda Vatan mavzusi umrboqiydir. U haqida kuylamaydigan, yozmaydigan, chizmaydigan ijodkorni topib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda Chin manbasida ta‘kidlagan imperatorga tobe bo‘lib qolgan Ishbarxonning quyidagi so‘zlari e‘tiborga loyiq: “O‘g‘limni saroyingizga yuboryapman. U sizga har yili kelib chiqishi samoviy bo‘lgan otlar taqdim etajak. Ertay-ku kech amringizga tayyorman. Ammo kiymimizning oldini ochishga, o‘rilgan sochlarimizni yoyishga, tilimizni o‘zgartirishga va sizning qonunlaringizni qabul qilishga kelsak, bizning urf-odatlarimiz juda qadimi bo‘lgani tufayli ularni buzishga jasoratim yetmaydi. Butun elimizning yuragi birdir”.

Darhaqiqat, qadim vatandoshlarimiz Vatan haqidagi tasavvuri, milliy qadriyati, urf-odati bilan butun dunyoda eng ilg‘orlardan bo‘lganiga tarix guvohlik beradi. Yuqoridagi qitbosundan uchta muhim xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, qadimgi qavmlarimiz ota-bobolaridan meros milliy qadriyatlariga shu darajada sodiq bo‘lganidan, hatto bu qadriyatlarni buzishga, biror yangilik kiritishga jazm eta olmagani. Insonning bunday ruhiy holatga tushishiga faqat bir omil sababchi bo‘lishi mumkin. Bu — Vatan tuyg‘usi. Vatanni faqat so‘zda emas, amalda sevish, ardolaash tufayli sodir bo‘ladigan ruhiy-axloqiy kechinmadir.

Ikkinchidan, ajdodlarimiz elimizning yuragini bir, deb ta‘kidlaydi. Millat va xalqni birlashtiradigan, ularni yagona maqsad sari safarbar eta oladigan fenomen hodisa ham Vatanidir. Butun bir xalqning yuragini bir qiladigan, jipslashtiradigan vataniy tuyg‘uni insoniyat tomonidan yaratilgan eng chiroyli topilid sifatida qabul qilish lozim, deb o‘ylaymiz.

Uchinchidan, xalqimizni uzoq ming yillar davomida turli bala-qazolardan saqlab, qanchadan-qancha bosqin-chiliklar-u mustamlakachiliklar asoratidan asrab-avaylab kelayotgan muhim omil milliy vjdonimizdir. Shuning uchun ham xalqimiz vijdon azobisiz yashash lazzatini bu dunyodagi eng katta baxtning ko‘rinishi sifatida e‘tirof etib kelgan.

Vatanni sevmok, unga sadoqat bilan xizmat qilish, tashvishli va quvonchli kunlarda hamdard va sherik bo‘lish har bir insonning ma‘naviy-axloqiy mas‘uliyatidir. Buyuk alloma Alixonto‘ra so‘g‘uniy ham Vatan to‘g‘risida kuyib-yonib ko‘p yozgan. Uning qayd etishicha, bu dunyoda yashagan har bir kishining beshta muqaddas narsasi bo‘lishi kerak: Vatani, dini, moli, oilasi, joni. “Biz, — deb yozadi alloma, — O‘zbekiston xalqi, haqiqatda shu Vatan ahllarimiz. Inson nasli yaratilib, yer ustiga qadam qo‘yg‘an kundan boshlab, bizning ota-bobolarimiz shu O‘zbekiston o‘lkasida yashab kelgan ekanlar, shu kunlargaacha tiriklarimizni bo‘ynida ko‘tarib, o‘liklarimizni qo‘ynida saqlamishdir. Bu O‘zbekiston Vatanimizning bir qatlamli bilan — o‘zbek xalqi ota-bobolarimizning suyaklari bilan ko‘tarilishidir. Demak, bo‘ynida ko‘targan, qo‘ynida saqlab, qo‘ sut berib tarbiyat qilgan bu O‘zbekiston — Turkiston bizning o‘z ona Vatanimizdir”.

Bugun tinchliksevar insoniyat ma‘rifati dunyoni istaydi. Ma‘rifati dunyoda davlatlar, siyosiy kuchlar, muholifatlar o‘rtasida ma‘naviy kelishuv yuzaga keladi. Ma‘naviy kelishuv taraqqiyot darajasi, qaysi qit‘ada joylashgani, aholisi soni, ijtimoiy yo‘nalganlik holati, qarashlari, madaniyati, dididan qat‘i nazar, mamlakatlar, xalqlarning o‘zligini hurmat qilish, umumiy taraqqiyot yo‘lida maqsadlarini uyg‘unlashtirishdan manfaatdorlik darajasidir.

Bu holatga erishish o‘ta qiyin. Ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlar, davlatlar, siyosiy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar, shubhasiz, bunday kelishuvga yo‘l bermayapti. Bu

juda achinarli holat. Yuqorida ta‘kidlaganimiz kabi dunyo intellektual holatining yuksakligi, insoniyat bilim va ko‘nikmalarining toбора ortib borishi, muammolarni sivilizatsion yo‘l bilan hal etishda yangi qoidalar ishlab chiqilishi barobarida jahoniy muammolarning yangidan-yangi turarl ko‘payib borishi dunyo mamlakatlari va xalqlarini boshi berk ko‘chaga qamab qo‘ymoqda.

Bunday vaziyatda ayrim davlatlarning chigal vaziyatdan unumli foydalanib qolishga intilishi, o‘z manfaatini boshqa mamlakatlard hududi hisobidan qondirishga urinishi barchani sergaklikka undashi tabiiy. Bu hol har birimizdan vatanparvarlik degan buyuk tushunchani borlig‘icha, ongli ravishda anglab yetishga chorlashi kerak.

Allomalarimiz bot-bot ta‘kidlaganidek, kimki o‘z Vatadini sevmasa, hech nimani seva olmaydi. Vatanni sevish uchun katta, keng yurak lozim. Bu yurak har doim insonni haqiqiy jasoratga undashi,

Xo‘sh, vatanparvarlik nima?

Vatanparvarlik — har birimizning tug‘ilib o‘sgan, kindik qonimiz to‘kilgan Vatan oldidagi farzandlik, fuqarolik burchimiz, ma‘naviy mas‘uliyatimiz, uning taraqqiy etishi, yanada gullab-yashnashi uchun fidoyilik hissini tuyish kabi ko‘plab ma‘no-mazmun beradigan tushuncha.

Vatan yo‘lida, kerak bo‘lsa, jonini qurbon qilishga hozir ekanini amalda isbotlab turishi zarur. Insonda fazilatlar juda ko‘p. Aslida, har birimizning mazmun-mohiyatimiz ham, o‘zligimiz ham tarbiya va axloqimizga mujaasam bo‘lgan turli fazilatlarda aks etadi. O‘nlab, yuzlab fazilatlar barchamizni bezab turadi. Biroq ularning orasida eng maqbul, eng zarur fazilat Vatanga sadoqatli bo‘lishning amaldagi ifodasidir.

Ba‘zan katta-kichik qilmishlarimiz, xato va kamchiliklarimiz, bilib-bilmasdan sodir etgan xunuk qilmishlarimizni xaspo‘shlashga o‘rganib qolganimiz. “Katta davlat va ko‘p sonli millat orasida mening bu xatolarim arzimas narsa” qabilida ish tutamiz. Ammo shu kichik xato, chala ishimiz, kamchiligimiz Vatanga nisbatan sotqinligimiz, Vatan yuziga tushirgan dog‘imiz ekanini har doim ham anglayapmizmi? Vatanni xor qilish uni sotish bilan barobar ekanini, Vatanga xiyonat esa shu odamning o‘z vijdonidan ayirilishi ekanini bilamizmi?

Vatanni sevish juda osondek. Biroq bu jarayon nazariy holatdan amaliyotga ko‘chmas ekan, Vatanga xiyonatni odatiy hol sifatida qabul qilavermiz. Atrofimizda har kuni sodir bo‘layotgan kamchilik, xatolarga befarq munosabatda bo‘laveramiz. Shaxsiy manfaatlarini Vatan taqdiridan yuqori qo‘yayotganlarga loqayd-ligimiz tufayli tanbeh berolmaymiz.

Nazarimizda, vatanparvarlik tuyg‘usini jonimiz va qonimiz, ruhiyatimizga yo qilib, singdirib yuborishimiz uchun, eng avvalo, Vatanning yaqin va uzoq tarixini bilishimiz kerak. Tarixdan bexabar inson Vatan haqidagi tushunchani bilishi mumkin. Ammo bu tushuncha sog‘lom e‘tiqodga aylanmaydi. Ko‘hna tariximizda minglab, yuz

minglab vatanparvarlar shu zamin, shu yurt uchun shirin jonini qurbon qilganini bunday odam qayerdan bilsin!

Haqiqatan, Vatanni sevish uchun uning tarixini, yorug‘ va qorong‘i kunlarini bilish, eng muhimi, undan to‘g‘ri xulosalar chiqarish zarur. Dunyoda birorta davlat yo‘qki, uning tarixi faqat zafarlardan iborat bo‘lsin. Biroq bunday hol Vatanni sevaslik huquqini bermaydi. Masalan, yurtimizda temuriylar hukmronligidan so‘ng — xonliklar davrida yuz bergan siyosiy parokandalik, ijtimoiy-madaniy qololiq, boylk orttirish dardida uzoq davom etgan urushlar buyuk Turkiston tarixidagi qora dog‘lardir. Albatta, bunday ziddiyatli holatlar bizni tarixdan to‘g‘ri, xolisona xulosalar chiqarishga undamay qolmaydi.

Qolaversa, Vatan yuragiga tig‘dek sanchilgan davrlarni esdan chiqarib bo‘larmidi. Vatan, millat manfaatini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘ya olmagani qanchadan-qancha rahbarlar, hukmron doiralarni ko‘rmadi bu Vatan.

Vatanni so‘zda emas, amalda sevish kerak-ligini anglatish uchun ham tarix bizga ustoz ekanini anglatadigan birgina misol keltirishni lozim topdik. “Ma‘rifatparvarlik — ijtimoiy-madaniy hodisa” kitobida qayd etilishicha, Xudoyorxon Ros-siya imperiyasi Xo‘jand, O‘rtepa va Jizzaxni 1866-yil may-oktabrda bosib olgani munosabati bilan general D.I.Romanovskiyini tabriklab, sovg‘a-salom yuboradi, uning kelajakdagi ishlariga muvaffaqiyat tilaydi. General Kaufmanga Samarqanddan hurmatli kishilar va amaldorlar yuborgan tabrikno-mada bunday yozilgan: “Mahram ostonasida sizning rahbarligingiz ostidagi shonli rus qo‘shinlari erish-gan g‘alaba va Qo‘qonni qo‘lga kirit-ganigiz haqidagi quvonchli xabarni oldik. Qo‘qonni adolati bo‘ysundirib, siz Qo‘qondoshning buyuk panohidagilar-ni norozi qilgan va ularga zulm o‘tkazgan-lar jazonalashini qo‘shni aholiga yana bir bor namoyish qildingiz”.

Bu dunyoda Vatan, millat to‘g‘risida aytildigan so‘zning mas‘uliyatidan ham kuchliroq narsa bo‘lmasa kerak. Yuqorida keltirilgan misolning ijtimoiy-ma‘naviy, tarbiyaviy-mafkuraviy, axloqiy ahamiyati bor. Uni ko‘rmaslik har birimizda vatanparvarlik degan buyuk tuyg‘uning mavjud emasligiga bir ishoradir. Tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, Vatan taqdiri xalq nomidan hukm qiladigan, ayrim shaxslarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ana shunday onlarda barcha mas‘uliyatni o‘z gardaniga olmaslik, mas‘uliyatni o‘zidan soqit qilish aslida, Vatanga va millarga sotqinlik, xiyonatdan boshqa narsa emas.

Shonli tariximizda bunday ayanchli misollar ham yo‘q emas. Shuning uchun ham bizga tarix kerak. Tarix tafakkur tarizimizni isloh etadi, o‘tmish bilan bugunning farqini taqqoslash asosida xulosa chiqarishga yordam beradi, ayrim odamlarning mog‘or bosgan ongi va qalbini tozalaydi, ruhiyatini musaffo havo bilan boyitadi. Tarix, shuningdek, bugun Prezidentimiz, xalqimiz tomonidan ishonch bildirilgan, ammo nasb balosiga quloq tutgan, o‘z manfaatini har narsadan yuqori qo‘yg‘an ayrim amaldorlar, “darsing keldi, davron sur” qabilida ish tutadiganlarni tarbiya qiladigan, to‘xtatadigan, o‘ylantiradigan, xulosa chi-qarishga majbur etadigan buyuk kuch, fenomen hodisadir.

Xo‘sh, vatanparvarlik nima? Vatanparvarlik — har birimizning tug‘ilib o‘sgan, kindik qonimiz to‘kilgan Vatan oldidagi farzandlik, fuqarolik burchimiz, ma‘naviy mas‘uliyatimiz, uning taraqqiy etishi, yanada gullab-yashnashi uchun fidoyilik hissini tuyish kabi ko‘plab ma‘no-mazmun beradigan tushuncha.

Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevish, u to‘g‘risida she‘r yozish, qo‘shiq kuylash, chiroyli gapirishgina emas. Vatanparvarlik

haqida minglab asarlar yaratilgan, u haqida gapirmagan odamning o‘zi yo‘q. Ammo bu bilan biz vatanparvar bo‘lib qolyapmizmi? Yodlangan she‘r, o‘qilgan badiiy asar, kuylangan qo‘shiq, yodlangan dissertatsiyada ko‘tarilgan g‘oyalar odamlarning avval sog‘lom e‘tiqodiga, so‘ng amaliy harakatiga ta‘sir qilmas, bularning natijasida shu Vatan ravnagida ham moddiy-iqtisodiy, ham jamiyatning ma‘naviy-ruhiy holatida aks etmas ekan, bu g‘oyalar, nazariyalar quruq gapdan boshqa narsa emas.

Haqiqatan, vatanparvarlik bugun real kuchga aylanishi kerak. Bunga yaqin va uzoq tariximizda misol ko‘p. Sadriddin Salim Buxoriyning “Buyuk Xorazmiylar” kitobida qayd etilishicha, Pahlavon Mahmud hind xalqi tomonida turib, Hindiston dushmanlariga qarshi jangda ishtirok etadi. Jang payti jonini xatarga qo‘yib bo‘lsa-da, hind shohi Ray Cho‘pani o‘lmdan qutqaradi. Shunda shoh Pahlavon Mahmudning bemisli jasorati, mardligini munosib taqdirlamoqchi bo‘lib: “Tila tilagingni!” deydi.

Pahlavon Mahmud: “Ey buyuk shoh! Bundan ancha yillar muqaddam vatandoshlarim — xorazmiylar bu yerga asir qilib kelingan. O‘shalmi ozod etsangiz. Birdan-bir tilaging shu!” deydi. Shoh hayron bo‘lib: “Ey himmati baland pahlavon! Agar yarim davlatimni tilagingda edi, uni gap-so‘z-siz senga in‘om qilgan bo‘lurdim. Agar sohibja-mol qizimni kichikninga olmoqni so‘raganida edi, seni o‘zimga kuyov etib, toj-u taxtimni senga bag‘ishlagan bo‘lardim. Zero, jasoratning ulkan mukofotga munosib. Mayli, tilagingni bajo keltirdim. Vatandoshlaring ozod! Ularni Xorazmga borgunlari-cha oziq-ovqat, kiym-bosh, ulov bilan ta‘minlashni ham buyuraman!” deydi.

Bugun dunyoda sodir bo‘layotgan jahoniy o‘zgarishlar, qadriyatlar transformatsiyasi, axloq tushunchalarining yemirilishi davlatlar va xalqlar taqdirida ko‘plab salbiy oqibatlarga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, biz uchun nihoyatda muqaddas bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasining tagzaminiga, asl mohiyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Natijada vatanparvarlik o‘rniga vatan-sizlikni targ‘ib etish, “globallashuv degani sening dunyo fuqarosiga aylanishing”, deb talqin qilish, milliy tarixni eskilik sarqiti sifatida tan olish kabi o‘ta mantiqsiz g‘oyalar ko‘payib bormoqda. Ushbu holat, o‘z navbatida, vatanfurushlikni yuzaga keltirmoqda.

Vatanfurushlikning real hayotdagi ko‘rinishi juda serob. Masalan, mehnatsiz rohat ko‘rishni istash, o‘z yurtidagi o‘zgarishlar, xalq qadriini oshirish borasidagi islohotlarni ko‘rmaslik yoki ko‘r turib turan olmaslik, o‘z baxtni o‘zga yurtlardan qidirishga intilish, jamiyatdan faqat illat qidirish va buning natijasida o‘zidan soxta demokrat obrazini yaratish, kishilar tafakkur tarzini manipulyatsiya qilish — bularning barchasi bugungi vatanfurushning ijtimoiy portretidir.

Ana shu holatlar shaxsda o‘zga g‘oyalarga tobelik kayfiyatini ko‘proq oshiradi. O‘zga yurtlardagi xunrezliklar, ziddiyatlar, kelishmovchiliklarni o‘zi-cha tahlil etish orqali jamiyatda yolg‘on taassurot uyg‘otish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Bu juda xavfli holat. Soxta vatanparvarlarning paydo bo‘lishi ham shu tarzda yuzaga keladi.

Bolaning onaga muhabbati tabiiy ravishda paydo bo‘lsa, Vatanga va yurtga muhabbat uning ongiga singdirilmog‘i, o‘rgatilmog‘i kerak. Shu ma‘noda, Patrik Jozef Byukenen bunday dey-di: “Amerikaning umumta‘lim maktablari zarurat tug‘ilganda mamlakatimizni himoya qilish mumkin bo‘lgan fuqaro va vatanparvarlarni tarbiyalamog‘i” dardkor. Ular bolalar qalbiga Amerikaga nisbatan muhabbat tuyg‘usini jo etmog‘i zarur. Zero, buyuk kishilar tarjimayi holi, tarixiy va badiiy asarlarni o‘qib, xalq qo‘shiqlarini tinglab, shonli tariximiz aks ettirilgan san‘at asarlarini tomosha qilish jarayonida ularning qalbiga Vatanga muhabbat tuyg‘usi mustahkamlanib boradi. Bu tuyg‘u qanchalik kuchli bo‘lsa, Vatanning uzviy qismi bo‘lib qolish, uning uchun jon fido qilish,

butun xalqni o‘z oilasini himoya qilgandek asrab-avaylash hissi shunchalik zo‘r bo‘ladi”.

Byukenenning ushbu fikrlaridan chiqqan xulosam bor. Bu, birinchidan, hamma orzu qilgan, butun dunyo talpingan AQSHdek davlatda ham vatanparvarlik masalasida muammo borligini anglatib turibdi. Demak, gap u yoki bu mamlakatning boy-badavlatligida emas.

Ikkinchidan, vatanparvarlik har bir insondan identitetlikni talab qiladi. Inson identitetligi milliy xususiyatlari, jamiyat bilan munosabatlari, dunyoqarashi, axloqi, olamga, odamga, o‘ziga nisbatan tasavvurida va, eng muhimi, vatanparvarligida aksini topadi.

Tarixiy zaminini anglamagan har qanday shaxs na o‘zi oldida, na jamiyat oldida ma‘naviy mas‘ullik his etadi. Faqat aniq va ravshan vataniy, milliy, mahalliy, madaniy va oilaviy identitetga ega insongina avvallari odamlar qanday, nima uchun va nimaga asoslanib yashagani, nimaga intilib, nimaga erishganini, ajdodlari yer yuzida qanday iz qoldirganini biladi. Ana shu holat insonda yuksak ma‘nodagi vatanparvarlik hissini uyg‘otuvchi, uni ma‘naviy oziqlantirib, ushbu fenomen hodisani avval bilishga, keyin sog‘lom e‘tiqodga, undan so‘ng esa real harakatga aylantiruvchi, har birimizdan shu yer, tuproq uchun hech ikkilanmasdan kurashga (jon berish uchun emas, unda kim kurashadi?!) otlantiruvchi kuchga aylanadi.

Uchinchidan, mazkur iqtibos bizni dunyoga yangicha nazar bilan munosabatda bo‘lishga undayapti. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilish kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohimiz, degan chuqur ma‘noli fikrlarni doimo yodda tutish kerak, deb hisoblaymiz.

Bugun, haddan tashqari tez o‘zgarib borayotgan dunyoda dunyoqarashimiz, hayotiy tamoyillarimizni zamonga mos ravishda o‘zgartiryapmizmi? Davlat va millatning hayot-mamot masalalari kun tartibiga qo‘yilgan bir paytda mayda, maishiy masalalar bilan ovora bo‘lib qolmayapmizmi? Biz qo‘shiq qilib kuylangan she‘r, g‘azaladagi, o‘qigan kitobdagi, eshitgan panel-nashitadagi millatni uyg‘otuvchi, uni yangi maralariga chorlovchi g‘oyalarning ro‘yobidan qoniqapmizmi?

Agar har birimiz shu savollarni o‘zimizga va bir-birimizga bersak hamda ularga jiddiy javob olishga intilsak, shubhasiz, o‘zgaramiz. Biz aksariyat hollarda o‘z takomilimizni dunyo-qarashimiz chegarasi bilan o‘lchaymiz. Ammo ko‘pincha dunyoqarashimiz (dunyoga qarash, uni keng ma‘noda ko‘rish, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni teran tahlil qilish va yagona to‘g‘ri xulosa chiqarish) “oilaqarash”, “mahallaqarash”, “qishloqarash”, “tuman-qarash” darajasida, cheklangan chegara doirasida qolib ketmayaptimi?

Bugungi dunyoda vatansizlikni, vatan-furushlikni targ‘ib etayotgan tahdidlar toбора ko‘payib borayotgan, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar o‘zlarining aniq maqsadlarini chiroqli gaplar, bilim saviyasi past, tajribasiz kishilarga xush yoqadigan jozibali qoliplarga solib talqin etayotgan bir sharoitda o‘zlikni, Vatanni saqlab qolish va bu yo‘lda yuksak vatanparvarlik namunalarni ko‘rsatish eng dolzarb masalaga aйлandi.

Bu yo‘lda, bir tomondan, e‘tiqodi sust, boqibeg‘am, ongsizlik kasaliga duchor bo‘lgan, mas‘uliyatdan qutulish uchun beqarorlikni tanlagan, vatandoshlik kayfiyatidan mosuvo, mayda maishiy muammolardan boshqa narsalarni tan olmaydigan ayrim odamlarni uyg‘ota olsak, ikkinchi tarafdin, Prezidentimiz va xalq ishonchini yuksak martaba, shu yurt va millat uchun xizmat qilishni hayotining mazmun-mohiyati deb bilgan hamda bundan ma‘naviy-ruhiy lazzat oladigan rahbarlarimiz yanada ko‘paysa, eng katta yutug‘imiz bo‘ladi. Aynan shunday kishilar bilan barcha maqsadimizga erishamiz.

